

Samarqand viloyat statistika boshqarmasi

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar–sentyabr

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **3169 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **1,0 % kamaydi**
- Tugatilgan korxonalar nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **2755 taga oshgan.**


2018 yilning yanvar-sentyabr oyida viloyatda 3641 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 900 taga ko'pdir.

Shuningdek, faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 54,6 % kamaygan hamda ularning soni 886 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 3169 ta (13,1 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 24192 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Samarqand shahrida (31,3 %), Urgut (9,2%), Pastdarg'om (7,7%) va Samarqand (6,8%) tumanlarida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), birlikda




Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 oktyabr holatiga)


	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Samarqand viloyati	25289	100,0	24192	100,0
Samarqand sh.	7950	31,4	7565	31,3
Kattaqo'rg'on sh.	896	3,5	881	3,6
tumanlar:				
Oqdaryo	991	3,9	926	3,8
Bulung'ur	938	3,7	892	3,7
Jomboy	836	3,3	815	3,4
Ishtixon	1280	5,1	1229	5,1
Kattaqo'rg'on	1167	4,6	1127	4,6
Qo'shrabot	568	2,2	551	2,3
Narpay	909	3,6	882	3,6
Payariq	1384	5,5	1304	5,4
Pastdarg'om	2031	8,0	1873	7,7
Paxtachi	654	2,6	623	2,6
Samarqand	1725	6,8	1643	6,8
Nurobod	695	2,7	647	2,7
Urgut	2265	8,9	2231	9,2
Tayloq	1000	3,9	967	4,0

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,3 % savdoda, 18,5 % sanoatda, 8,5 % qurilishda, 7,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,2 % tashish va saqlash, 1,7 % axborot va aloqa, 2,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 29,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




2018 yil yanvar-sentyabr holatiga 3641 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 24,7 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Samarqand shahrida (1037 ta), Samarqand (283 ta), Urgut (287 ta) va Pastdarg'om tumanlarida (287 ta) tashkil etilgan. Eng kam Paxtachi (79 ta), Narpay (85 ta) hamda

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoatda (802 ta), savdoda (710 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (493 ta), qurilishda (415 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (339 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa, axborot va aloqada (61 ta), tashish va saqlashda (94 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (94 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-sentyabrda	2018 yil yanvar-sentyabrda
Jami:	2741	3641
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	371	493
Sanoat	753	802
Qurilish	261	415
Savdo	553	710
Tashish va saqlash	87	94
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	322	339
Axborot va aloqa	61	61
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	82	94
Boshqa turlari	252	633

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)


2018 yil 1 oktyabr holatiga 18982 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, shundan xususiy korxonalar – 4840 ta, oilaviy korxonalar – 2278 ta, mas`uliyati cheklangan jamiyatlar – 11350 ta, boshqalarda 514 tani tashkil etdi.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 oktyabr holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 376 tani tashkil etdi. O`tgan yilning shu davriga nisbatan 103 taga yoki 27,4 % ga o`sgan. Shuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalardan 282 tasi qo`shma korxonalar, 94 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yillar davomida o'sish, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Samarqand shahri (193 ta, 51,3 %), Urgut (38 ta, 10,1 %) va Jomboy tumanlari (31 ta, 8,2 %) hissalariga to'g'ri kelmoqda.

Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Qo'shrabot (1 ta, 0,3 %), Kattaqo'rg'on (3 ta, 0,8 %), Narpay (4 ta, 1,1 %) hamda Paxtachi (5 ta, 1,3 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa, mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.


Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 oktyabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 232 ta (61,7 %), savdoda 54 ta (14,4 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 23 ta (6,1 %) tashkil qilgan.

Eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 4 ta (1,1 %), axborot va aloqada 3 ta (0,8 %), tashish va saqlashda 6 ta (1,6 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 29 ta (7,7 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 11 ta (2,9 %) va qurilishda 14 ta (3,7 %) tashkil qilgan.


Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-sentyabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalar soni 99 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,7 taga ko'paygan yoki 62,6 barobarga oshgan.


Bunda, Turkiya Respublikasi – 20 ta, Koreya Respublikasi – 14 ta, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 11 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 8 ta va Ukraina - 2 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yil davomida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston, Germaniya Federativ Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, (yanvar-sentyabr holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 38 ta, savdoda 20 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 15 ta, qurilishda 12 ta va boshqa faoliyat turlarida 7 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 oktyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 18865 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 oktyabr holatiga qaraganda 15,4 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 6322 tasi (33,5 %) Samarqand shahriga, 1791 tasi (9,5 %) Urgut, 1372 tasi (7,3 %) Samarqand hamda 1410 tasi (7,5 %) Pastdarg'om tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 18865 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 5365 tasi (28,4 %) - savdoda, 4449 tasi (23,6 %) - sanoatda, 2066 tasi (11,9 %) - qurilishda, 1791 tasi (9,5 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1500 tasi (7,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 755 tasi (4,0 %) - tashish va saqlashda, 390 tasi (2,1 %) - axborot va aloqa sohasida, 442 tasi (2,3 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 2107 tasi (10,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-sentyabr holatiga 3250 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 17,4 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Samarqand shahrida (957 ta), Samarqand (270 ta), Urgut (250 ta) va Pastdarg'om tumanlarida (241 ta) tashkil etilgan. Eng kam Paxtachi (61 ta), Narpay (76 ta) hamda Qo'shrabot (74 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (802 ta), savdoda (710 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (492 ta) va qurilishda (415 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (61 ta), tashish va saqlashda (94 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (94 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 oktyabr holatiga 2347 tani tashkil etib, ulardan 2278 tasi yoki 96,8 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 50,5 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 33,9 % yoki 773 tasi sanoat, 26,7 % yoki 608 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 18,0 % yoki 411 tasi savdo, 9,7 % yoki 222 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,1 % yoki 26 tasi qurilish, 1,6 % yoki 36 tasi axborot va aloqa, 0,9 % yoki 20 tasi tashish va saqlash, 0,4 % yoki 9 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 7,7 % yoki 173 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Samarqand viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrarni yuritish bo'limi



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYaDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan

Nashr uchun mas'ul: **F.Zulfuqorov**
(0371) 230-85-42,43